

INSON QADRI UCHUN, INSON BAXTI UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 2 (1328), 2025-yil 4-yanvar, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



DAVLAT BUDJETI IQTISODIY-IJTIMOY MASALALARNI MANZILLI HAL ETISHGA XIZMAT QILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyevga
“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti
to‘g‘risida”gi qonun ijrosini ta‘minlash
chora-tadbirlari to‘g‘risida axborot berildi.**

Mazkur qonun 17 ta modda va 10 ta ilovadan iborat bo‘lib, unda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘z ifodasini topgan. Xususan, 2025-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 6 foiz o‘shishi kutilmoqda.

Konsolidatsiyalashgan davlat daromadlari 431 trillion so‘m miqdorida, xarajatlari esa 480,5 trillion so‘m miqdorida rejalashtirilgan holda, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz miqdoridagi taqchillik bilan tasdiqlandi.

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari balansi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 foiz miqdorida taqchillik bilan shakllantirildi. Bunda davlat budjeti daromadlari 308,5 trillion so‘m, xarajatlari esa davlat maqsadli jamg‘armalariga transfertlarni inobatga olgan holda 344,8 trillion so‘m miqdorida rejalashtirildi.

2025-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari prognozi 65,8 trillion so‘m, xarajatlari prognozi 84,3 trillion so‘m miqdorida bo‘lishi inobatga olingan. Shuningdek, respublika budjetidan mahalliy budjetlarga 18,5 trillion so‘m miqdorida tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar o‘tkazib berilishi nazarda tutilgan.

Qonunga ko‘ra, bu yil ham davlat xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligi

saqlab qolindi. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, fan, madaniyat va sportni rivojlantirish, muhtoj aholini uy-joy bilan ta‘minlash kabi tadbirlar uchun jami davlat budjeti xarajatlarining 52 foizi yo‘naltiriladi.

Mahalliy budjetlar daromadini ko‘paytirish va mustaqilligini oshirish maqsadida quyidagi soliq turlari qo‘shimcha tarzda tuman va shaharlar budjetlarida qoldiriladi:

— aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari to‘liqligicha (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

— jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

— davlat mulkini xususiy lashtirishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlarning 50 foizi.

Shuningdek, tuman va shaharlar mahalliy Kengashlariga ayrim soliq turlari bo‘yicha koefitsiyent qo‘llash vakolatlari berilgan.

Umuman, davlat budjeti joriy yilda ham iqtisodiyotni izchil rivojlantirish, ijtimoiy masalalarni manzilli hal etib, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘ZA

MAHALLIY HOKIMLIK VA BANKLARNING MUVOFIQLASHGAN FAOLIYATI BANDLIKNI TA‘MINLASH OMILI

3-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevga banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta‘minlash va daromadli qilish chora-tadbirlari bo‘yicha axborot berildi.

Bu haqda o‘tgan yil 16-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida topshiriq berilgan edi. Shundan kelib chiqib, 2025-yilda jami 5 million 200 ming nafar, jumladan, banklar tomonidan 3 milliondan ziyod aholini band qilish rejalashtirildi.

Shu maqsadda 208 ta tuman va shaharlar hokimlari hamda banklar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta‘minlash va daromadini oshirish bo‘yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi, bunda tomonlarning aniq huquq va majburiyatlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Har bir mahalla bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi. Aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan “mahalla

loyihasi” dasturi doirasida ajratiladigan 1 milliard dollar kredit resurslari banklar va hududlar kesimida taqsimlandi. Loyiha ishlab chiqish, kredit ajratish, aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha tuman banki rahbariga oyma-oy samaradorlik ko‘rsatkichi qo‘yildi.

Endi Markaziy bank raisi va uning o‘rinbosarlari hududlarga chiqib, joylardagi bank filiallarining mahallalardagi ishini yangicha yondashuv asosida tashkil qiladi. 2025-yil 1-fevralga qadar tuman banklari filiallarida mahallabay ishlash bo‘limlari tashkil etilib, ularga “mahalla bankirlari” tayinlanadi. Shuningdek, har bir mahallada ular bilan birga ishlaydigan “yordamchi-agentlar” tanlab olinadi.

Hududiy banklar hamda tuman hokimlari aholini tayyor biznes loyihalari bilan tanishtirib boradi, ularni amalga oshirish ko‘nikmalari o‘rgatiladi.

“online-mahalla.uz”, “bank-kredit.uz” va “soliq.uz” axborot tizimlari integratsiya qilinib, mas’ullarga yuklatilgan vazifalar ijrosi kunlik tahlil qilib boriladi. Faoliyati qoniqsiz bo‘lgan rahbarlarga chora ko‘riladi.

2025-yil bandlikni ta‘minlash va kambag‘allikni kamaytirishda hal qiluvchi yil bo‘lishi, buning uchun mahalliy hokimliklar va iqtisodiy-moliyaviy tuzilmalarning muvofiqlashgan ishini faollashtirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

TURKISTON JADIDLIK HARAKATINING ASOSCHISI, ATOQLI ADIB VA JAMOAT ARBOBI, NOSHIR VA PEDAGOG MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY TAVALLUDINING 150 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO‘G‘RISIDA


Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ong ta’fakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlarga bosh-qosh bo‘ldi. Mohir publisist sifatida o‘z davrining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, “Samarqand” gazetasi hamda “Oyina”

jurnaliga asos soldi. 1914-yilda “Turon” teatrida sahnalashtirilgan “Padarkush” pyesasi orqali o‘lkamizda teatr san’atining tamal toshini qo‘ydi. Afsuski, atoqli adib va jamoat arbobi bo‘lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo‘ldi. Mustaqillik davrida Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng omallashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida uning muazzam haykali o‘rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e’tirof etildi. Iste’dodli dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot ta’sis qilingani shu yo‘ldagi yangi amaliy qadam bo‘ldi.

Davomi 2-betda



FARG‘ONA: TARAQQIYOTNING YANGI DAVRI



Islohot odimlari

O‘zbekiston gavhari sifatida e’tirof etiladigan Farg‘ona viloyatida barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, aholining farovonligini yuksaltirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishildi.

Davomi 3-betda

Buyuk o‘zbek yo‘li

TRANSPORT ARTERIYALARI

ZAMONAVIY LOYIHA IQTISODIY BARQARORLIGIMIZ, AHOLI FAROVONLIGIGA KATTA HISSA QO‘SHADI

Mazkur sohani iqtisodiyotning qon tomiri, deymiz. Temir yo‘llar va transport qanchalik muhimligini dunyodagi murakkab vaziyat ham ko‘rsatayapti. Shu bois, yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish, yuk va yo‘lovchi tashish jarayonlarini tezlashtirish, transport xizmatlari tannarxini pasaytirish juda muhim.

Boz ustiga, mamlakatimizda iqtisodiyot, savdo aloqalari ham yildan yilga rivojlanmoqda. Aholi daromadi, hududlarning turizm salohiyati oshyapti. 2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo‘yilgan. Shuning uchun transport “arteriya”lariga alohida ahamiyat berish davr talabi.

Bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro transport va tranzit salohiyatini yuksaltirish borasida ham yangi uqflar ochilmoqda. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlar boshlangani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

2024-yil 27-dekabr kuni Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston yangi magistral temir yo‘li qurilishiga start berildi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev marosim ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatda xalqaro ahamiyatga ega yangi transport arteriyasi yaratilayotganini, bu mamlakatlar iqtisodiyoti va bepoyon mintaqamiz uchun katta samara berishini alohida qayd etdi.

Davomi 2-betda

2025-yil — Atrof-muhitni asrash
va “yashil” iqtisodiyot yili



“YASHIL” ENERGETIKA INQILOBI

O‘ZBEKISTON BUNI QANDAY UDDALAMOQDA?

Taniqli ixtirochi Tomas Edison tomonidan dunyodagi ilk elektr lampochkasi yaratilganidan buyon insoniyat sun‘iy yorug‘lik — elektr tokidan foydalanib keladi. Ammo lampochka va boshqa yoritqichlar elektr tokini qabul qiluvchi qurilma, xolos. Elektr energiyasini hosil qiladigan omillar boshqa — ular tabiiy gaz, ko‘mir kabi ma’danlarning yoqilishi hisobiga ishlab chiqariladi. Garchi bu atmosferaga katta miqdorda zararli gaz chiqishiga olib keladigan usul bo‘lishiga qaramay, bir necha asrlar davomida shunday bo‘lib kelgan. Biroq bizning davrimizga kelib, tabiiy resurslarning muttasil qisqarishi, insoniyatning esa ehtiyoji ortayotgani, global iqlim muammolari elektr energiyasi ishlab chiqarishning muqobil, xavfsiz va qayta tiklanadigan manbalarini yaratish zaruratini oshirdi.

Davomi 4-betda

Boshlanishi 1-betda

Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, shu asosda ularni Yangi O'zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyatini inobatga olib hamda uning bebaho merosini yanada kengroq o'rganish va targ'ib etish maqsadida:

1. Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi hamda jamoatchilik vakillarining 2025-yilda Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog **Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash** to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bo'yicha **tashkiliy qo'mita** (keyingi o'rinlarda – Tashkiliy qo'mita) ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

3. Tashkiliy qo'mita (A.Aripov) ikki hafta muddatda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini nishonlash bo'yicha amalga oshiriladigan **chora-tadbirlar dasturini** tasdiqlasin.

Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilsin:

mutafakkir adibning **“Tanlangan asarlar”** to'plami, uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish;

Mahmudxo'ja Behbudiy haqida **spektakllar** sahnalashtirish hamda bugungi kunga qadar yaratilgan **“Mahmudxo'ja Behbudiy”** kinoseriali va **“Xalq yuragi”** badiiy-publitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish;

Badiiy akademiyaning Markaziy

ko'rgazmalar zalida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, shuningdek, Turkiston jadidlik harakati namoyandalari faoliyatiga oid **tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasini** uyushtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ijod maktablari o'quvchilari, “Temurbeklar maktablari” kursantlari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida **“Mahmudxo'ja Behbudiy saboqlari”** mavzusida insholar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash;

barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mehnat jamoalari, mahallalar va harbiy qismlarda tanqli olimlar va adiblar ishtirokida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan **ijodiy uchrashuvlar, adabiyot va kitobxonlik kechalarini** tashkil qilish; zamonaviy raqamli va targ'ibot texnologiyalari asosida Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarini yoshlar o'rtasida keng ommalashtirish;

2025-yil oktabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida **“Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o'rganishning dolzarb masalalari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish;

2025-yil noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan **tantanalı adabiy-ma'rifiy xotira kechasini** o'tkazish;

Samarqand shahridagi Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi hududini obodonlashtirish hamda **muzey ekspozitsiyasini boyitish**;

Qarshi shahridagi ko'chalardan biriga **Mahmudxo'ja Behbudiy nomini** berish hamda unga bag'ishlangan **yodgorlik lavhasini** o'rnatish;

Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish,

shuningdek, ommaviy axborot vositalarida turkum materiallarni e'lon qilish.

Tashkiliy qo'mitaga Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash doirasida o'tkaziladigan tadbirlarni yuksak saviyada uyushtirish, mazkur qarorga asosan belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifati va to'liqligiga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Jumalistlar uyushmasi, O'zbekiston Milliy media birlashmasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining

150-yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Belgilansinki, mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar tashkilotchilarga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, ularning budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 27-dekabr

Buyuk o'zbek yo'li

TRANSPORT ARTERIYALARI
ZAMONAVIY LOYIHA IQTISODIY BARQARORLIGIMIZ, AHOLI FAROVONLIGIGA KATTA HISSA QO'SHADI

Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bundan yarim yil oldin mazkur strategik transmintaqaviy loyihani amalga oshirish bo'yicha birinchi to'laqonli bitim imzolangan edi. O'tgan qisqa davrda texnik hujjatlarni tayyorlash ishlari yakunlandi. Bu uch qo'shni mamlakat salkam 30 yil davomida intilib kelgan tom ma'nodagi tarixiy voqe'lik hisoblanadi. Yangi transport arteriyasi Markaziy Osiyo mintaqasini Xitoy bilan qisqa yer usti yo'li orqali bog'laydi, davlatlarimizning ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish va strategik sherikligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ko'prik vazifasini bajarib, hamkor davlatlar o'rtasida uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlaydi.

Ushbu temir yo'li loyihasi mintaqada davlatlari o'rtasida transport-kommunikatsiya aloqalarini yangi bosqichga olib chiqadi. Bir tomondan, O'zbekiston, Qirg'iziston va Xitoy o'rtasidagi logistika zanjirini keskin qisqartirish, yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va tranzit muddatini optimallashtirish imkoni yaratiladi.

Ikkkinchi tomondan, butun Markaziy Osiyoda mavjud tranzit yo'llariga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish paydo bo'ladi. Bu nafaqat mintaqada ichidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki Yevropa va Osiyo o'rtasidagi xalqaro transport yo'llariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada Markaziy Osiyo mintaqasining global savdo-sotiq tarmoqlaridagi o'rni oshadi, raqobatbardoshlik kuchayadi.

Xususan, “Bir makon, bir yo'l” tashabbusi doirasida multimodal transport koridorlarini rivojlantirishda yana bir mustahkam poydevor yaratiladi, bu esa xalqaro iqtisodiy va geosiyosiy integratsiyani kuchaytiradi. Ushbu temir yo'lining aholi turmush tarziga ta'siri xususiida to'xtaladigan bo'lsak, uning ishga tushirilishi bilan yuk tashish xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. Natijada chetdan keltiriladigan tovarlarning narxi arzonlashishi, mahalliy ishlab chiqarish uchun xomashyo va butlovchi qismlarning o'z vaqtida va arzonroq yetib kelishi ta'minlanadi. Temir yo'l atrofidagi infratuzilma, logistika markazlari, chegara postlari, xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishi sababli minglab yangi ish o'rni paydo bo'ladi. Bu esa aholi bandligi va daromadlarini oshiradi.

Koshg'ar — Torug'at — Makmal — Jalolobod — Andijon yo'nalishi bo'yicha 20 ta stansiya, 42 ta ko'prikl, 25 ta tunnel barpo etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy tranzit-logistika infratuzilmasi, omborxona va terminallar quriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu magistral yo'lining ishga tushirilishi mintaqaviy savdo va investitsiyalar hajmini bir necha barobar ko'paytirish, transport xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish, Markaziy Osiyoning ulkan tranzit salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ushbu yo'l orqali yiliga 15 million tonna yuk tashiladi. Xitoydan Yevropa mamlakatlariga yuklarni yetkazib berish masofasi va muddati bir necha ming kilometr va kamida bir haftaga



qisqaradi. Yo'lovchilarni muntazam tashishni yo'lga qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kelgusida esa mazkur temir yo'l liniyasi Transafg'on yo'lagi bilan tutashib, Xitoy, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasidagi transport-kommunikatsiya tarmoqlarini samarali birlashtirish va kuchaytirishga imkon yaratadi. Bundan, hech shubhasiz, barcha mamlakatlar

iqtisodiy foyda ko'radi. Albatta, ushbu loyiha Buyuk ipak yo'lining qayta tiklanishiga, madaniy-gumanitar almashuvlar rivojiga, xalqlarimizning yanada yaqinlashuviga xizmat qiladi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi va sanoat kooperatsiyasi ko'lami, investitsion jozibadorlik o'sib, mamlakatlar farovonligi ortadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yangi temir yo'l eng yirik savdo hamkorimiz bo'lmish Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirib, mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. U Xitoyni mintaqada bilan bog'lovchi eng qisqa quruqlik yo'lga aylanadi. Umuman olganda, tizimdagi islohotlar ana shunday yirik loyihalarni ro'yog'ga chiqarishga mustahkam poydevor yaratamiz.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar har tomonlama strategik sheriklik maqomida. Transport-kommunikatsiya sohasidagi hamkorlik esa ikki davlat siyosiy manfaatlarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar hamda oliy darajadagi muloqotlar ushbu loyihaning tezkor boshlanishida muhim omil bo'ldi. Bilamizki, Xitoy o'zining yirik investitsiyaviy loyihalari

va moliyaviy institutlari orqali infratuzilma qurilishiga salmoqli mablag' kiritishga tayyor. O'zbekiston va mintaqada davlatlari bunday sarmoyalarni jalb qilish orqali nafaqat temir yo'l, balki avtomobil yo'llari, energetika inshootlari, logistika markazlarini rivojlantirishi mumkin.

Xitoy infratuzilma qurilishi yo'nalishida katta tajriba ortirgan. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qurilish materiallarini standartlashtirish va sifatini oshirish bo'yicha hamkorlik tufayli O'zbekistonda ham yuqori malakali mutaxassislar soni ko'payadi, qurilish sohasidagi innovatsion yondashuvlar kuchayadi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikni mustahkamlash orqali yirik ishlab chiqarish va logistika klasterlarini barpo eta oladi. Masalan, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li atrofida transport-logistika xabarini yaratish regional klasterlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqa oqimini keskin oshiradi. Transport yo'llarining o'zaro bog'liqligi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Mintaqada davlatlari hamkorligi kuchaysa, xavfsizlik sohasida hamkorlik bo'yicha yangi mexanizmlar ishlab chiqilishi mumkin bo'ladi, jumladan, bojxona, chegarachilar va nazorat organlari o'rtasida o'zaro ishonch mustahkamlanadi.

Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lining ishga tushishi nafaqat transport-logistika infratuzilmasini rivojlantiradi, balki mintaqaviy integratsiya jarayonlarini jadallashtiradi, aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va O'zbekistonning Xitoy bilan ikki tomonlama hamkorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yo'nalish bo'yicha qo'lga kiritiladigan barcha yutuqlar kelajak avlodlarga ham katta manfaat keltirishga shubha yo'q. Binobarin, kelgusida ushbu yo'l istiqbolli Transafg'on yo'lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi, tranzit salohiyati va mintaqalarni o'zaro bog'liqlikni sezilarli darajada oshiradi.

Bu yo'l Xitoy uchun ham Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqni bog'laydigan eng istiqbolli, eng qisqa yo'l. Hozir Xitoy o'z yuklarini Yevropaga Xitoy — Mo'g'uliston — Rossiya — Belarus — Yevropa Ittifoqi (8650 kilometr), Xitoy — Qozog'iston — Kaspiy dengizi — Ozarbayjon — Gruziya — Turkiya — Yevropa Ittifoqi (9120 kilometr), Xitoy — Qozog'iston — Turkmaniston — Eron — Turkiya — Yevropa Ittifoqi (10170 kilometr), Xitoy — Yevropa Ittifoqi dengiz yo'li (10 ming kilometrdan ortiq) yo'nalishlari orqali jo'natyapti. Yangi Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li ilgariidan mavjud bo'lgan Turkmaniston — Eron — Turkiya va Yevropa Ittifoqi yo'nalishi bo'yicha davom etishi, masofani 900 kilometrga, yukning yo'ldagi vaqtini bir haftaga qisqartirishi mumkin. Qolaversa, ayni paytda davlatlar o'rtasida davom etayotgan turli ziddiyatlar xalqaro yuk tashuvchilarni yangi yo'nalishlarni qidirib topishga undadi.

Yuk tashishda Markaziy Osiyo yo'nalishining afzalligi haqida tobora ko'p gapirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamlı loyihani amalga oshirish uchun O'zbekiston

hududida barcha zarur infratuzilma yaratilgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz zamonaviy temir va avtomobil yo'llari milliy tarmog'ini

ilgari surgan BMT ko'magi ostida transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish bo'yicha Mintaqaviy markazni tashkil etish



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

kengaytirmoqda, yuklarni qayta ishlash va tashish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida raqamli texnologiyalarni faol joriy qilmoqda. Uzoq muddatli umumiy manfaatlarimizga javob beradigan Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li strategik loyihasi do'stlik va sheriklik munosabatlarimizni mustahkamlash, mamlakatlarimiz, xalqlarimiz farovonligi va taraqqiyotiga katta foyda keltirishi shubhasiz.

Ushbu yo'l yuqorida aytganimizdek, bizga Transafg'on yo'lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi.

Janubiy Osiyo geografik jihatdan Markaziy Osiyoga nihoyatda yaqin. Masalan, Temiz shahridan Pokistonning Karachi portigacha atigi 660 kilometr bo'li bosish kifoya. Bu hatto mamlakatdagi bir shahardan ikkinchi shahargacha bo'lgan masofadan ham kam.

Shu nuqtayi nazardan, Mozori-Sharif — Kobul — Peshovar yo'nalishi Markaziy Osiyodan Hind okeaniga olib boruvchi eng qisqa yo'l ekanini qayd etish joiz. Dengiz portlariga chiqish hamda bu bo'yicha qulay transport koridorlarini yaratish O'zbekiston uchun strategik vazifa. Busiz dunyo bilan savdo-sotiq qilishimiz, milliy mahsulotlarning hamyonbopligini ta'minlashimiz, eksport salohiyatimizni oshirib, iqtisodiy taraqqiyot sari ildamlashimiz imkonisiz.

Pokiston bilan aloqalarni mustahkamlash asosida mamlakatimiz yana bir yirik transport-logistika loyihasi — Peshovarga olib boruvchi Transafg'on temir yo'li qurilishiga bosh qo'shishi kutilmoqda. Chunki buning ortida, avvalambor, iqtisodiy manfaat yotibdi. Janubiy Osiyo mintaqasi bilan yaqinlashishimizning asl sababi ham shunda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 23-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida

to'g'risidagi tashabbusi Markaziy Osiyo mintaqasida transport-kommunikatsiya sohasini rivojlantirish va ushbu yo'nalishdagi muammolarning samarali yechimini topishga qaratilgan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko'rayotir. Bu yo'nalishda bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida havo qatnovi va G'alaba — Amuzang — Xushadi temir yo'li tiklandi.

O'zbekiston va Turkmaniston sa'y-harakatlari bilan Amudaryo orqali o'tadigan Turkmanobod — Forob yangi temir yo'l va avtomobil ko'priklari ochildi. Ushbu ko'priklar O'zbekiston — Turkmaniston —

Eron — O'mon transport-tranzit yo'nalishining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bu yo'l yuk tashish hajmini 2,5 barobar oshirish imkonini berdi. Amudaryo orqali o'tadigan ko'priklar yuk oqimlarini Osiyo va Tinch okeani mintaqasi, Janubiy Osiyo davlatlaridan Kaspiy dengizi, undan keyin Qora dengiz va O'rta yer dengizi mintaqasi, Yevropa, Kavkazorti, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga to'g'ridan to'g'ri olib chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu ko'priklar O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon transport-tranzit yo'nalishining muhim bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida avtobus yo'nalishlari, tezyurar temir yo'l aloqalari ishga tushirildi. Qirg'iziston bilan Markaziy Osiyodan ilk bor to'g'ridan to'g'ri Xitoyga chiqadigan Toshkent — Andijon — O'sh — Irkeshtom — Koshg'ar avtomobil yo'lagi bo'yicha qatnov yo'lga qo'yildi. Bu loyihalar Markaziy Osiyoning boshqa xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirishga yordamlashadi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz.uz_news



yuz



Islahot odimlari

FARG'ONA:



TARAQQIYOTNING YANGI DAVRI

Xayrullo BOZOROV,
Farg'ona viloyati hokimi

Boshlanishi 1-betda

Ishli odam baxtli bo'ladi

Aholi bandligini ta'minlash bugun har qachongidan-da ustuvor vazifalardan. O'tgan yilda investitsiya jalb etish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, qurilish sohaslarida 447,4 mingdan ortiq fuqaroning bandligi ta'minlandi. Buning natijasida ishsizlik darajasi, 5,7 foizga tushdi. Bu yo'nalishda Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tajribasi har bir mahallaga kirib bordi, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda dasturlamal bo'lib xizmat qildi. Masalan, banklar bilan birgalikda mahallalarda 73 ming kishining bandligi ta'minlandi. Bu jarayonda kam daromadli 6438 ta oila tanlab olinib, ularga 103 milliard so'mlik ijtimoiy paket yetkazib berildi. 32 ming 153 ta mikroloyiha doirasida 989 milliard so'mlik kredit ajratildi. Natijada 59 ming odam muqim ish o'miga ega bo'ldi. Uychi tajribasi asosida banklarning faol mijozlari bilan ishlashi natijasida 9445 ta ish o'rmi ochildi. Zarbdor tajribasi doirasida qiymati 2,1 trillion so'mlik 234 ta loyiha ishga tushirildi, 11 mingta ish o'rmi tayyorlandi. G'ijduvon tajribasi asosida mahallalarda 590,3 milliard so'mlik 324 ta loyihani ishga tushirish orqali aholi muqim daromad manbai bilan ta'minlandi.

2024-yil avvalida viloyatda kambag'al oilalar 133,7 mingta, kambag'allik darajasi 11,7 foizni tashkil etgan. Islahotlar natijasida oxirgi uch yilda 217 ming fuqaro kambag'allikdan chiqarildi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 7096 ta kambag'al oilaga 1430 rahbar birlashtirilgan. Ular kambag'allikdan chiqarish bo'yicha har bir oila bilan alohida reja asosida ishlayapti. Bu orqali yil yakuni bo'yicha kambag'al oilalar soni 106,9 mingtaga, kambag'allik darajasi 7,9 foizga tushirildi.

Aholi bandligini ta'minlashda mahallabay, xonadonbay ishlash tizimi yo'lga qo'yilgani ijobiy samara berdi. Viloyatimizdagi 1063 ta mahallaning har birini muayyan yo'nalishga ixtisoslashtirishga e'tibor qaratilyapti. Bugunga qadar mahallalarning 220 tasi sanoat, 281 tasi dehqonchilik va tomorqachilik, 238 tasi ko'chachilik, gulchilik, uzumchilik, 144 tasi xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirildi. Natijada 106 ta mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi. 2025-yilda barcha mahallalar o'zi uchun drayver bo'lgan soha bo'yicha ixtisoslashadi.

Kutlayotgan ishsizlik hamda mehnat bozoriga kirib keluvchilarni inobatga olgan holda, 2025-yilda 497,5 ming kishini ish bilan ta'minlashga maqsad qildik. Buning hisobiga ishsizlik 4 foizga tushirildi.

Kelsangiz, hayratat qolasiz

Keyingi yillarda viloyat aholisi yiliga o'rtacha 88 ming kishiga ko'paymoqda. Bu qo'shimcha 40 ta maktab, 100 ta bog'cha, 20 ta shifoxona, 4 ming xonadonli uy-joy va 50 ming ish o'miga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur raqamlar zamiridagi masala nimaning hisobiga hal etiladi? Albatta, sanoat imkoniyatini oshirish, investitsiya va investorlar oqimini ko'paytirish, yangi uy-joylar qurish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali yechiladi.

Farg'onada uy-joylar qurish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish borasidagi hayotbaxsh yangilanishlardan ko'plab farg'onaliklar bahramand bo'lmoqda. Viloyatning o'ziga xos yangi timsoli bo'lgan ekoshahar — "Yangi O'zbekiston" massivi qurib bitkazildi.

Ko'z o'ngimizda dunyoning megapolisarlari bilan bo'yashayotgan, sharqona latofat, zamonaviy shaharsozlik va landshaft arxitektura an'analari bilan uyg'unlashgan muhtasham uy-joy massivi bo'y ko'rsatdi. Bu yerda yashash

istagidagi yurtdoshlarimiz safi kundan kun kengayib bormoqda. Shahrimiz qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborayotgan fayzli va obod ko'chalar, baland imoratlar xalqimizning fazilatlariga xos bunyodkorlik hamda yaratuvchanlikning yorqin timsoli.

Ko'hna Farg'onaning janubiy sarhadlariga tutash, yaqin yillargacha bir giyoh unmagani, tosh-shag'alidan iborat dala-dashtda yangi shahar qurilishining birinchi bosqichi yakuniga yetdi. Umumiy maydoni 300 gektar maskanda 2800 xonadondan iborat 75 ta ko'p qavatli uy-joy qurib bitkazildi. Ikkinchi bosqichda yana 25 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirilishi hisobiga 1350 oila yangi uy bilan ta'minlanadi.

Xitoylik investorlar Farg'ona vodiysida yagona, qiymati 25 million dollarlik 30 qavatli muhtasham majmua qurilishini jadal davom ettirmoqda. "ECO TOWER" binosida mehmonxona, turar joy, savdo va ko'ngilochar majmualar o'rin oladi. Yaponiyalik investorlar tashabbusi bilan 3 gektar maydonda "Yapon bog'i" va mehmonxona, bir gektarda zamonaviy tibbiyot klinikasi qurilmoqda. Shveysariyaning "RABAT" kompaniyasi tashabbusi bilan 4,5 gektar maydonda zamonaviy savdo majmuasi qad ko'taradi.

"Yangi O'zbekiston" massivi mamlakatimizda o'xshashi yo'q, noyob va mukammal yondashuv asosida qurildi. Ekologik toza, "yashil" iqtisodiyotga asoslangan innovatsion g'oyalari va texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Har bir uy energiyatejamkor. Yangi dacha ob-havosini mo'tadillashtirish, muntazam obihayot bilan ta'minlash maqsadida

bajarish imkonini beradi. Bu omillar sabab uylar bahosi sezilarli darajada arzonlashdi. Shu yerning o'zida bank krediti, subsidiya ajratish, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni bilan

Avvallari xorijiy investorlarni olib kelish, ular uchun munosib sharoit yaratib berishda katta muammolarga duch kelingan. Ortig'cha qog'ozbozlik, tanish-bilishchilik investor,

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan viloyatimizda yangi sanoat zonalarini uchun jami 1641 gektar yer maydoni ajratib berildi. Bu imkoniyat natijasida 2025-yil viloyatimiz uchun



bog'liq masalalarni bir joyda, bir vaqtda hal etib beruvchi "Ipoteka" markazi ishlab turibdi.

Aholining uy-joyga talabini qondirish, yashash uchun munosib shart-sharoit yaratish bu bilan cheklanib qolgani yo'q, albatta. Ayni

tadbirkorlar sillasini quritgani bor gap. Endi bu boradagi ish tizimi o'zgardi. 2024-yilda umumiy qiymati 1,8 milliard dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, bu boradagi o'sish sur'ati 1,4 barobar ortdi, 1000 ga yaqin



umumiy uzunligi 11 kilometr suv o'zani bunyod etildi. Suv resurslaridan unumli foydalanish maqsadida ariqlar betonlandi, daraxt va yashil maydonlarda yomg'irlatib, tomchilatib sug'orish tizimi o'rnatildi. Hududga o'ziga xos tarovat, fayz berib turuvchi sun'iy ko'l va zamonaviy favvoralar qurilishi poyoniga yetkazildi.

Farg'ona tumani Damko'l qishlog'idan 14,2 kilometr toza ichimlik suv, 7,5 kilometr yuqori kuchlanishga ega elektr tarmoqlari tortildi. Shuningdek, 11,2 kilometr yangi tozalash quvuri ishga tushirildi. Xonadonlarni issiqlik bilan ta'minlash uchun 21 ming megavatt quvvatga ega markazlashgan isitish qozoni qurildi. Ayni jarayonda 420 o'rinni 3 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 990 o'rinni 2 ta umumta'lim maktabi, 250 qatnov o'rninga ega markaziy poliklinika qurilishi yakunlandi.

O'zbekiston Qahramoni, mashhur fermer Lolaxon Murotova nomidagi qishloq xo'jaligi yo'nalishlari fermer mahallali mutaxassislar tayyorlovchi fermerlar maktabi ilk tinglovchilarni qabul qildi. "Yangi O'zbekiston" bog'i tashkil etilib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'tgan yilning o'zida 20 xildan ortiq 35 ming tup manzarali ko'chat ekildi. Aholi maroqliq hordiq chiqarishi, madaniy-ma'rifiy kecha, ko'ngilochar tadbirlar o'tkazishiga mo'ljallangan 4 ming o'rinni amfiteatr qurildi va unga uyg'un tarzda sun'iy ko'l-da musiqlik favvoralar o'rnatildi. Ichki yo'llar boshqa hududlar bilan tutashtiruvchi halqa yo'l bilan birlashtirildi, jamoat transporti qatnoviga qulay joyda shohbekatlar barpo etildi. Ellik gektar maydonda kichik sanoat zonasining ishga tushirilishi hisobiga 20 mingdan ziyod ish o'rmi ochish borasida ishlar qilinayapti. Ekoshahardagi uylarda tabiiy gaz ishlattilmaydi. Quyosh paneli, "aqli" va tejamkor jihozlardan samarali foydalanish bilan bog'liq shart-sharoit yaratib berildi. Har bir uy to'm qismi, yo'l va yo'laklariga "aqli" chiroq o'rnatilgan. Quyosh panellari ishlab chiqarigan elektr energiyasi xonadon va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga uzluksiz yetkazib berilmoqda. Barcha uy-joylar bazalt bilan qoplandi. Bu uyning qishda issiq, yozda salqin bo'lishini ta'minlaydi.

Kommunikatsiya jihozlari yer ostida — bitta tunnelda jamlandi. Bu ta'mirlash ishlarini qulay sharoitda, ortiqcha xarajatsiz, sifatl

kunda Yozyovon va Farg'ona tumanlarida "Yangi O'zbekiston" massivlari qurish ishlari poyoniga yetayotgan bo'lsa, Marg'ilon shahrida

istiqboli loyiha ishga tushirildi, 35 mingdan ortiq ish o'rmi ochildi.

Farg'ona viloyatiga investitsiya kiritmoqchi

2024-yil avvalida viloyatda kambag'al oilalar 133,7 mingta, kambag'allik darajasi 11,7 foizni tashkil etgan. Islahotlar natijasida oxirgi uch yilda 217 ming fuqaro kambag'allikdan chiqarildi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 7096 ta kambag'al oilaga 1430 rahbar birlashtirilgan. Ular kambag'allikdan chiqarish bo'yicha har bir oila bilan alohida reja asosida ishlayapti. Bu orqali yil yakuni bo'yicha kambag'al oilalar soni 106,9 mingtaga, kambag'allik darajasi 7,9 foizga tushirildi.

mana shunday zamonaviy shahar qurilishiga tamal toshi qo'yilib, qurilish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, renovatsiya dasturi asosida ma'nan eskirgan uy-joylar o'rmi da zamonaviy ko'p qavatli uylar qurilmoqda.

Investitsiya salohiyati

So'nggi yetti yilda viloyatimizdagi sanoat korxonalarini 2,8 barobar ko'payib, 13 mingtaga yetdi. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot 2017-yilda 6,8 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu boradagi ko'rsatkich salmog'i 20,3 million so'mdan ortdi. Bu tabiiy ravishda ishlab chiqarish va eksport imkoniyatini oshirdi. Keyingi yillarda neft, kimyo, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, charmi qayta ishlash, farmatsevtika, elektrotexnika, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi oshdi, sifati yaxshilandi.

"Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasida foydalanishga topshirilgan 99 ta loyiha hisobiga umumiy qiymati 1 trillion 939 milliard so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, 68,3 million dollarlik mahsulot eksportga yo'naltirildi. Bugungi kunda umumiy qiymati 341,3 milliard dollar bo'lgan 35 ta yirik loyihada qurilish-montaj ishlari bajarilmoqda. Mazkur loyihalar ishga tushirilishi hisobiga qo'shimcha 6515 ta yangi ish o'rmi ochildi.

bo'lganlar qatorida Xitoy yetakchilik qilmoqda. Bu davlat tomonidan 915 million dollar investitsiya kiritildi. Shuningdek, Rossiya, Germaniya, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya, Tailand singari iqtisodiyoti barqaror davlatlar farg'onaliklar bilan hamkorlik qilib kelmog'ida.

Jumladan, Dang'ara tumanida Xitoyning "Xong Geng Fashion" MCHJ XK tomonidan qiymati 8 million dollarlik dukkakli ekinlar va quritilgan mevani qayta ishlash hamda qadoqlash loyihasi yiliga 20 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Farg'ona shahridagi "Baqay" kichik sanoat zonasida "Toshloq samo biznes" MCHJ QK tomonidan qiymati 13 million dollarlik misni qayta ishlash loyihasi, Beshariq tumanida Rossiya bilan hamkorlikda "Drujba un kombinati" MCHJ XK tomonidan un va un mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Xorijiy investitsiyani ko'paytirish uchun Janubiy Koreyaning Chuncheonnamdo viloyati, Pyontek, Incheon, Kimpo shaharlaridagi yirik ishlab chiqaruvchilar va sanoat zonalarini bilan hamkorlik qilyapmiz. Chuncheonnamdo viloyatida Farg'ona investitsiyalar va savdo vakolatxonasi ochildi. Hamkorlik natijasida bugun viloyatga investitsiya kiritayotgan mamlakatlarning umumiy soni 29 taga yetdi, qo'shma va xorijiy korxonalar 800 dan oshdi. Xorijlik hamkorlar va salohiyatli investorlar bilan muzokaralar tufayli 7,5 milliard dollarlik 1,5 ming loyiha paketi shakllantirildi.

xorijiy investitsiyalarni jalb etishda eng samarali yil bo'ladi.

Hamkorlikning dastlabki bosqichida qiymati 2 milliard dollarga yaqin 69 ta loyiha bo'yicha manzilli ishlar ijrosiga kirishdik. Xususan, Xitoy "Yashil qurilish materiallari xalqaro savdosi" uyushmasi bilan "Qo'qon" EIZ Quvasoy shahri hududidagi 100 gektar maydonda "Yashil qurilish materiallari xalqaro sanoat zonasini" tashkil etish bo'yicha sa'y-harakatlar boshlandi. Loyihaning birinchi bosqichida 30 gektarda zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, qiymati 100 million dollarlik 20 ta va keyingi bosqichlarda 1 milliard dollarlik 50 ta loyihani joylashtirish rejalashtirilmoqda.

Yangi sanoat zonalarida istiqbolli va yuqori daromadli ish o'rni yaratadigan loyihalarni amalga oshirish uchun barcha tuman, shaharlardagi salohiyatli tadbirkor va mutasaddilar Xitoyga amaliy safarlarga yo'naltirildi.

Buvayda tumanida 1210 gektar yer hisobidan 50 gektarlik sanoat zonasini Xitoyning "Jengjou Rong Yan Rong" uyushmasi boshqaruviga berish bo'yicha muzokaralar yakunlanib, plastik buyumlar, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi texnikalari, xalq iste'moli mollari va oziq-ovqat



mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishlarini qamrab olgan, qiymati 150 million dollarlik 30 ta loyiha joylashtirilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga dunyo bozoriga mahsulot yetkazib beruvchi eksportchilar soni 551 taga yetdi. Oltiitridagi "Sherakhun" korxonasi tomonidan AQSHning "NetCost" oziq-ovqat savdo tarmog'ining Nyu-Yorkdagi nuqtalariga an'anaviy eksport bozorida yuqori narxda, qadoqlangan uzum yetkazish yo'lga qo'yildi. Hozir 8 million dollarlik 72 tonna mahsulot chet elga jo'natildi. "HAVVO GROUP" korxonasi tomonidan 21 million dollarlik meva-sabzavot mahsulotlari BAA, Qozog'iston, Ukraina, Rossiya davlatlariga eksport qilindi.

Bu yo'nalishdagi geografik hududlar kengayib borishi tufayli viloyatimiz tadbirkorlari sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 70 ga yaqin mamlakatga eksport qilmoqda.

"Yashil" iqtisodiyot sari

Farg'ona viloyatining iqtisodiy imkoniyatini oshirish, rivojlanish bosqichi bilan bog'liq loyihalar haqida gap ketganda, shubhasiz, "yashil" energetika sohasidagi islohotlar ko'lami kengayib borayotganini aytish joiz.

Prezidentimiz o'tgan yili 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga amaliy tashrif chog'ida O'zbekiston tumanida Xitoyning "Gezhouba Group" kompaniyasi bilan hamkorlikda ilk elektr energiyasi saqlash tizimi qurilishi loyihasini boshlab bergandi. Qisqa muddatda zamonaviy elektr energiyasi saqlash tizimi qurib bitkazilgani bugungi va ertangi kunimiz uchun muhim voqea bo'ldi. Bu masalaning bir jihati. Boshqa tomondan esa yangi loyiha orqali chekka hududga yangi hayot, farovonlik, bunyodkorlik an'analari kirib keldi. Suv yetib bormagan ovloq joylarda obihayot chiqarildi, yangi yo'llar yotqizildi, infratuzilma tarmoqlari tortildi. Yangi loyiha mamlakatimizda birinchi tarmoqqa ulangan batareya energiya saqlash tizimi bo'libgina qolmay, Markaziy Osiyodagi eng yirik energiya saqlash omboridir. Elektr energiyasini batareyada saqlash, ayniqsa, qishda qo'l keladi. Kunduzi yuklama past bo'lgan vaqtda tizimni quvvatlanirish, yuklama yuqori bo'lganda uni bo'shatib, tizimdagi muvozanatni saqlashga yordam beradi. Noqulay ob-havo sharoitida ham elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berish xususiyatiga ega.

Soha rivoji yo'lidagi islohotlar davomi sifatida Beshariq tumanida 500 megavattli quyosh fotoelektr stansiyasini qurishga start berildi. Loyiha qiymati 350 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri investitsiyani tashkil etadi. Buning uchun 1060 gektar cho'l hududidan yer ajratildi. Germaniyaning "Hyper Partners" kompaniyasi investorligidagi loyiha qurilish-montaj ishlari Xitoyning "China Western Power Industrial" kompaniyasi va mahalliy tashkilotlar tomonidan bajariladi. Loyiha natijasida 1100 million kilovatt-soat yoki 458 ming xonadonning bir yillik iste'moliga teng "yashil" energiya ishlab chiqarish, 333 million kub metr tabiiy gazni tejash mumkin hamda 462 ming tonna zararli moddalarning atmosferaga chiqarilishining oldi olindi.

Suv resurslaridan foydalanib muqobil elektr energiyasi ishlab chiqarish borasidagi loyihalar aholi og'irlini yengil qilmoqda. Alohida qabul qilingan dastur doirasida Farg'ona tumanida 2 ta kichik GES barpo etildi. Shohimardon qishlog'ida qurilgan 2,2 megavattli va Yuqori Vodil qishlog'ida 430 kilovattli stansiyalar yiliga 13 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Buning hisobiga 3,5 million kub metr tabiiy gaz sarfining oldi olindi. E'tiborsiz, bu yo'nalishlar uchun kerakli quyosh panellari bilan bog'liq zarur jihozlarni mahalliy sharoitda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.



2025-yil — Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

“YASHIL” ENERGETIKA INQILOBI

O‘ZBEKISTON BUNI QANDAY UDDALAMOQDA?



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Tilimizga o‘rnashib ulgurgan “yashil” energetika atamasi shu asnoda paydo bo‘lib, ommalashdi. Ya’ni odamzod endi elektr energiyasi hosil qilishning tabiiy jarayonlariga o‘tib boryapti. Quyosh, shamol, suv, shuningdek, geotermal va biomassa kabi qayta tiklanuvchi manbalarni ishlatish hisobiga energiya ishlab chiqarish mamlakatlar oldidagi muhim vazifaga aylandi. Buning ikki muhim sababi bor. Birinchisi dunyo miqyosida energiya hosil qiladigan manbalar tugab borayotgani bo‘lsa, ikkinchisi atmosferaga zararli chiqindi gazlar chiqarilishi hisobiga havoning keskin ifloslanishi va global iqlim muammolari yuljudga kelayotganidir. Har ikki holat ham davlatlarning bir-biriga bog‘liqligini yuzaga keltiradi. Aytaylik, energetika ishlab chiqarish quvvati bo‘lmagan mamlakat o‘z-o‘zidan boshqa davlatdan import qilish hisobiga bog‘lanib qoladi. Ekologik jihat esa allaqachon global masalaga aylangan. Insoniyat nafas olayotgan havo zararli chiqindilar hisobiga ifloslanishda davom etyapti. Iqlim o‘zgarishlarining boshqa oqibatlari ham sayyoramizning har burchagida sezila boshlagan. Dunyo xalqlari bunga qarshi birgalikda kurashishga intilmoqda. O‘zaro bitimlar, ishonchli kelishuvlar imzolangan. Jahon iqtisodiyotida “yashil” taraqqiyot tamoyillarini joriy etish harakati faollashgani boisi ham shunda. Mazkur yondashuv BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Hamkorlarimiz — gigant kompaniyalar

Quyosh bizga doim beminnat yorug‘lik beradi. Nur tanamizga D vitamini bo‘lib singadi. Yurtimiz sharoitida bu yorug‘likdan deyarli yil — o‘n ikki oy bahra olamiz. Ammo uni iqtisodiy samaradorlikka ham aylantirish

Muhammad ABUNAYYAN, “ACWA Power” kompaniyasi raisi:

— Dunyoda ko‘pchilik muqobil energiyaga o‘tish haqida gapirmaydi. Lekin O‘zbekiston buni amaliyotga tatbiq etdi va bu borada jahonga namuna bo‘lmoqda. 2024-yilda biz mamlakatda ishga tushirilgan katta loyihalarga guvoh bo‘ldik, megaloyihalar amalga oshirilmog‘da. Ularning hech biri Janob Prezidentning kuchli yetakchilgisiz amalga oshmagan bo‘lardi. Davlat yetakchisi doim loyihalarning rang-barangligiga e’tibor qaratadi, harakatlar aniq strategiya, uzoqni ko‘zlagan siyosatga asoslangan. Keyingi yillarda erishilgan muvaffaqiyatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston “yashil” iqtisodiyoti kelajakda yanada ko‘p investorlarni jalb qilishga ishonaman. Bu “yashil” vorodor, “yashil” data markaz yoki “yashil” sun’iy intellekt bo‘lishi mumkin. Mazkur yo‘nalishda “ACWA Power” kompaniyasi doim O‘zbekistonning ishonchli hamkori bo‘lib qolishga tayyor.

mumkin. Masalan, quyoshdan xuddi tabiiy gaz va boshqa ma’danlar singari elektr energiyasi olsa bo‘ladi. To‘g‘ri, buni mutlaqo tekin tushadi deb bo‘lmaydi. Chunki bu ham o‘ziga xos texnologiya bo‘lib, xarajat talab etadi. Farqi shundaki, quyosh, suv, shamol va boshqa tabiiy manbalar inson omili ta’sirida ishlab chiqarilmaydi va qayta tiklanish xususiyatiga ega. Qolaversa, bu usulda ekologiya uchun zararsiz, ortiqcha isrofchiliklarsiz, arzon va uzluksiz elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Ana shuni “yashil”, ya’ni ekologik toza energiya deb ataymiz. Agar bu iqtisodiyotning barcha sohalarini va umuman, hayotimizga keng joriy etilsa, birgina elektr energiyasi ishlab chiqarish orqali ekologiyaga yetkazilayotgan zararli ta’sirni qancha kamaytirish mumkinligini tasavvur qilavering. Shunda mamlakatlar “yashil” taraqqiyot tamoyillarini joriy etishga intilayotgani sababi yanada oydinlashadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib mazkur harakatga

qo‘shilgan va qisqa vaqtda “yashil” taraqqiyot tomon yuz burib, megaloyihalarni amalga oshirayotgan davlat sifatida tilga olinmoqda. Bundan sakkiz yil oldin mamlakatimizda quyosh yoki shamoldan elektr energiyasi olish u yoqda tursin, buning uchun zarur stansiyalar qurishning o‘zini tasavvur qilish qiyin edi. Chunki bu borada hech qanday tajriba bo‘lmagan. Faqat quyoshli o‘lkada yashashimiz, bu dehqonchilikda qo‘l kelishi haqida to‘lqinlanib gapirardik. Bugun esa dunyo hamjamiyati O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish imkoniyatlari va harakatlari haqida gapiryapti, yirik loyihalarni katta qiziqish bilan kuzatyapti. Masalan, hozir yurtimizda qariyb 3,5 ming megavatt quvvatdagi 13 ta yirik “yashil” loyiha tarmoqqa elektr toki uzatmoqda. Buning hisobiga 2024-yilda “yashil” energiya ulushi 16 foizga yetkazildi. Ya’ni ekologik toza energiya quvvati yiliga 2-3 karra ko‘paytirilayapti.

Tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekiston neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali “yashil” energetikaga o‘tish mimg chandon afzal. Tahlillar ham yurtimizda quyosh va shamol energetikasini imkoniyati elektrga hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortig‘i bilan qoplashga yetishini ko‘rsatyapti. Lekin shunday ulkan imkoniyat ancha yil ishga solinmagan.

“Yashil” energetikaga o‘tish yo‘lidagi harakatlar 2019-yildan boshlandi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan noldan yangi tarmoq paydo bo‘ldi. Prezidentimizning “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida yaqin o‘n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgandi. Shu tariqa yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha dadil qadam tashlandi. Tez orada umumiy quvvati 20 ming 630 megavattga teng quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda 40 ta bitim imzolandi.

Quyosh yoki shamoldan elektr energiyasi olish biz uchun mutlaqo yangi yo‘nalish bo‘lgan. Bu borada na tajriba, na tasavvur, na biror asos, na ilmiy izlanish va loyihalar bor edi. Shunday sharoitda yagona chora xorij tajribasini o‘rganish bo‘ldi. Shu bois, sohani isloh etishni birinchi galda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilimaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahat qilishdan boshladik. Ayni chog‘da qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog‘ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasi



yaratildi. Sohada ma’muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va shaffof tizimga o‘tili. Xususi sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Energetika vazirligi, shuningdek, har bir yo‘nalish bo‘yicha mas’ul va javobgar yangi tashkilotlar tuzildi.

Bularning barchasi tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qildi. Jahon “yashil” energetika maydonining gigantlari yurtimizga kirib kela boshladi. Albatta, hamkorlik, tajriba to‘plash va katta loyihalarni amalga oshirish uchun ularga eshiklarimiz keng ochildi. Saudiya Arabistonining “ACWA Power”, BAAning “Masdar”, Tepelen Group AG va “Solar Power Shine”, Fransiyaning “Total Eren”, “Volitalia”, Xitoyning “China Energy Overseas Investment”, “China Datang Overseas Investment” hamda “Universal Energy”, Germaniyaning “Hyper Partners” kompaniyalari tomonidan birin-ketin yirik loyihalar start olib, faol davom ettirilmoqda.

— Bugunga qadar sohaga 3 milliard dollar



to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib keldi, yana 15,5 milliard dollarlardan ortiq loyihalar amalga oshirilyapti, — deydi energetika vaziri o‘rinbosari Umid Mamadaminov. — Deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmog‘da. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Namanganda qariyb 3,5 gigavattli 13 ta

yirik quyosh va 3 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushdi. Mamlakatda 2017-2024-yillarda umumiy quvvati 456 megavatt yirik, kichik va mikro GESlar ishga tushirildi. Agar yillar kesimida tahlil qilsak, loyihalar soni ham, ko‘lami ham ortib borayotgani ko‘zga tashlanadi. Xususan, 2021-yil avgustida Navoiy viloyatining Karmana tumanida O‘zbekistondagi ilk 100 megavatt quvvatli yirik quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilgan edi. 2022-yil mayda Samarqand viloyatining Nurobod tumanida ikkinchi 100 megavatt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi faoliyat boshladi. 2023-yil ham tarmoqda ancha barakali yil bo‘ldi. Jizzax viloyatining G‘allaorol tumanida 220 megavatt, Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanida 220 megavatt, Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida 200 megavatt, Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida 200 megavatt, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida 457 megavatt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirildi. 2024-yilda mazkur loyihalarining qo‘shimcha yangi quvvatlari ham yo‘lga qo‘yildi.

loiyhalarining qiymatini ko‘pchilik yetarlicha anglab yetmayapti. Ammo vaqti kelib, mamlakat “yashil” energetika taraqqiyotining ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ekologik samaradorligi hayot tarzimizga bevosita kirib keladi.

2024-yil 13-dekabrda poytaxtimizda yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bog‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi qiymati 3,7 milliard dollarlik 18 ta yangi quvvat ishga tushirildi, navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start berildi. Jahon hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan kuzatib borilgan ushbu voqea haqida Prezidentimiz bunday dedi: “Bugungi tadbir

Sin ZONGYI, “Yenergy China” kompaniyasi vitse-prezidenti:

— O‘zbekiston dinamik iqtisodiyotga ega davlat bo‘lish bilan birga sarmoyadorlar uchun jozibador mamlakatga aylandi. Bu biz kabi yirik kompaniyalarni qiziqitradi. Mamlakatda 6 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshiryapmiz. O‘tgan yili 1 gigavattli quyosh fotoelektr stansiyasi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritgan bo‘lsak, bu yil yana 2 ta elektr energiyasi saqlash tizimi loyihasini boshlab yubordik. O‘zbekiston “yashil” energetika sohasida o‘z oldiga juda katta maqsadlar qo‘ygan, ulkan jamoa, katta kuch ishga solingan. Ishonamanki, buning natijasida O‘zbekiston yaqin yillarda qo‘shni davlatlarga ham, Yevropa davlatlariga ham “yashil” energiya eksportini amalga oshira oladi. Bu bo‘yicha juda puxta dastur ishlab chiqilgan. “Energy China” kompaniyasining oldida ham yana 6 ta elektr energiyasi saqlash tizimini qurish loyihasi turibdi.



yurtimiz energetika tarixida yangi sahifa ochadi. Ishga tushirilayotgan bu loyihalar orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishga erishamiz, balki kelajak avlodlarimiz uchun yashil va barqaror O‘zbekistonning mustaqil poydevorini yaratamiz”.

Voqea chindan tarixiy. Uning tarixiyligi shundaki, O‘zbekiston o‘zining “yashil” energetika imkoniyatlaridan foydalana boshladi. Tabiat bizga in’om etgan tabiiy manbalarni elektr energiyasiga aylantirish tajribasiga qadam qo‘ydi. Bu yo‘lda shiddat hamda qat’iy ishonch bilan harakatlanyapti, xorijlik hamkorlar ham investitsiyalar hajmini oshirishdan cho‘chimayapti. Xususan, Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar qiymati 15 milliard dollardan oshdi. Xitoyning “Energy China” kompaniyasi 6 milliard, BAAning “Masdar” brendi esa 2 milliard dollarlik investitsiya loyihalarida ishtirok etmoqda. Vaholanki, jahon energetika sanoatining mazkur ilg‘or uch brendi ishonchini qozonish, hamkoriga aylanish oson emas.

2023-yil dekabrda mamlakatimizda 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgan edi. 2024-yilda bu ko‘lam bir necha barobar kengaydi — 13-dekabrda umumiy qiymati 7 milliard dollardan ziyod 24 ta loyiha tayyorlandi. Ish boshlagan loyihalar orasida Buxoro, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida qariyb 2,3 ming megavatt quvvatga ega 5 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hamda 5 ta yuqori kuchlanishli podstantsiya ham bor. Loyihalar, avvalo, hududlarda energetika barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat olis manzillargacha uzluksiz elektr toki yetib boradi, balki sanoat rivojlanib, yangi quvvatlar, korxonalar ishga tushadi, degani. Qolaversa, har bir loyiha ortidan yuzlab, minglab odam ish bilan ta’minlanadi.

Namangan viloyati Pop tumanida ishga tushirilgan 500 megavatt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasining qurilishi o‘tgan yili martda boshlangan edi. Loyiha Germaniyaning

“Hyper Partners” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilyapti. U to‘liq ishga tushirilgach, yillik 1 milliard 95 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun 1100 gektar maydonda 1 milliondan ortiq quyosh paneli joylashtiriladi. Mutaxassislarning aytishicha, panellar ham uski tomondan quyosh nurini qabul qiladi, ham pastki tomondan yerdan qaytgan nur hisobiga energiya oladi. Stansiya qurilishi paytida 500 ta, to‘liq ishga tushirilgach esa 30 ta yangi ish o‘rni ochiladi. Nafaqat Pop tumani, balki butun vodi y uzsiz elektr energiyasi bilan ta’minlanadi.

Navoiy viloyati Tomdi tumanida “Masdar” kompaniyasi bilan hamkorlikda qurib bitkazilgan shamol elektr stansiyasi ham to‘liq quvvatda ishlay boshladi. Qariyb 293 gektarli maydonda qurilish-montaj ishlari bajarilgan, mazkur loyiha qiymati 600 million dollarga teng. Hozir har birining quvvati 4,7 megavatt dan umumiy quvvati 500 megavattli 111 ta shamol turbinasi o‘rnatilgan. Stansiyaning to‘liq ishga tushishi natijasida yiliga 1 milliard 752 million kilovatt-soat yoki qariyb 730 ming xonadonning bir yillik iste’moliga teng “yashil” energiya ishlab chiqariladi. Bu, o‘z navbatida, 531 million kub tabiiy gazni tejash va 736 ming tonna zararli modda atmosferaga chiqarilishining oldini olish imkonini yaratadi. Qolaversa, barqaror energiya manbai Navoiy viloyatining olis cho‘l hududlaridan biri bo‘lgan Tomdi tumanida nafaqat bugungidek chorvachilik, balki sanoat rivojiga xizmat qiladi.

Ikki og‘iz so‘z...

Iqtisodiyot tarmoqlari rivoji bevosita barqaror energetikaga bog‘liq ekani tobora oydinlashmoqda. Bizda bu borada hali kamchiliklar bor. Masalan, bir necha yildan buyon qish mavsumida aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash maqsadida sanoat korxonalarida ayrim cheklolvar o‘rnatilmoqda. Bu ishlab chiqarishda uzilishlar, hatto katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Megaloyihalar davri

O‘zbekistonda qachondir “yashil” energetika yo‘nalishida shunday katta quvvat yaratiladi, desa birov ishonmasdi. Hozir ham





MA’RIFATLI JAMIYATNING ASOSIY POYDEVORI – MAKTAB, USTUNI ESA MUALLIMDIR

Munosabat



Abdug'affor QIRG'IZBOYEV,
Nizomiy nomidagi TDPU rektori

Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan ezu g‘oyasi asosida maktabgacha va maktab ta’limi sohasi hamda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro andoza va zamonaviy talablar asosida tashkil etish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bu islohotlarni birgina Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti misolida ko‘radigan bo‘lsak, 2015-2016-o‘quv yili oxirlarida deyarli yopilib ketayotgan oliyog‘oh o‘sha davrda mamlakat Bosh vaziri bo‘lib ishlagan Shavkat Mirziyoyev tomonidan katta qiyinchiliklar evaziga saqlab qolindi. Bu dargoh keyinchalik aynan davlatimiz rahbarining tizimli va bevosita e’tibori natijasida respublikamizda maktabgacha va maktab ta’limiga pedagog kadrlar tayyorlovchi eng yirik oliyog‘ohga aylanib, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha yetakchi oliy ta’lim muassasasi etib belgilandi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik vazifasiga kirishgan dastlabki kunlardan o‘z O‘zbekistonni ilm-fansiz, ta’lim va tarbiyasiz rivojlantirib bo‘lmagligini, barcha soha va tarmoqlarda belgilanadigan ulkan maqsadlarni amalga oshirish va taraqqiyotni davom ettirish yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasiga, vatanparvarligiga bevosita bog‘liqligini, shuning uchun ham yangi O‘zbekistonning birinchi zamini sifatida o‘qituvchilarni ko‘rishini, oliy pedagogik ta’limni o‘zgartirmasdan maktab ta’limini o‘zgartirib bo‘lmagligini ta’kidlab, o‘qituvchilarni yangi metodikalarga o‘qitish tizimi Toshkent davlat pedagogika universitetidan boshlanishi lozim, degan g‘oya olg‘a surildi.

2022-yilda ana shu yuksak ishonchning amaliy tasdiq‘i sifatida davlatimiz rahbarining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, universitet xalqaro talablariga muvofiq transformatsiya qilinishi belgilandi. Oltita yo‘nalishdagi 26 ta yaxlit vazifani o‘z ichiga olgan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Qaror bilan o‘ta dolzarb va o‘zaro bog‘liq

uchta vazifa: zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash masalalarini samarali hal etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

2024-yil 3-aprel kuni Yangi Toshkent shahridagi ilk inshootlar qurilishiga bag‘ishlangan tadbirda Prezidentimiz bu ulkan loyiha qurilishi ilm va ta’lim maskanlaridan boshlanayotganiga alohida urg‘u berib, bular ma’rifatli jamiyat barpo etish g‘oyamizning asosi va namunasi bo‘ladi, degan edi.

Ma’rifatli jamiyatning asosiy poydevori maktab bo‘lsa, muallim uning ustuni ekanini ta’kidlab, Yangi Toshkent shahri qurilishida birinchi qatorida Toshkent davlat pedagogika universitetining yangi kampusi barpo etilishini bildirdi. Yuqori reytingli xorijiy oliyog‘ohlar tajribasi asosida “bog‘cha — maktab — universitet” yaxlitligidagi innovatsion pedagogik klaster faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida kampus 20 ming talabaga mo‘ljallangan o‘quv binolari, 5 ming o‘rinli yotoqxonalar, 300 o‘rinli bog‘cha, 616 o‘rinli maktab, 588 o‘rinli akademik litsey, shuningdek, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boshqa obyektlarni o‘z ichiga oladi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 28-dekabr kuni Yangi Toshkent loyihasi qurilishini ko‘zdan kechirish davomida universitet uchun qurilayotgan binolarni borib ko‘rdi. “Men avval aytganimdek, bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot bo‘lsa, biri — ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi. Bilimli yoshlar bobolarimizga munosib keng fikrli, milliy g‘ururli, yetuk insonlar bo‘ladi. Shuning uchun yangi shahrimiz qurilishini ma’rifat maskanlaridan boshlayapmiz. Bular yuz yilga tatigulik ma’naviyat, ma’rifat, ilm o‘chog‘i bo‘lishi kerak”, dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, faqatgina universitet binosi yangi bo‘lmagligi, shunga mos ravishda ta’lim sifati va samaradorligi ham yangi va yuqori bo‘lishi, maktablarga nur, bilim olib kiradigan yoshlarni tarbiyalash kerakligiga alohida e’tibor qaratildi.

Qurilayotgan majmua pedagog va talabalar uchun eng zamonaviy qulayliklar hozirlanishi, ta’lim mazmuni, o‘quv jarayonini tashkil etishda dunyoning eng nufuzli oliyog‘ohlari tajribalari joriy etilishi lozimligi, o‘quv jarayonining zamonaviy boshqaruv asosida tashkil etilishi, dual ta’lim yo‘lga qo‘yilishi evaziga o‘qish va amaliyot sifatida o‘shib bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, xorijiy tajribani o‘rganish uchun hozirdan universitet professor-o‘qituvchilari va o‘quv jarayoniga mutasaddi xodimlarni xorijga yuborish, binolarni jihozlashda nimalarga e’tibor berish lozimligi bo‘yicha aniq taklif va ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari majmuaning kelgusidagi ahamiyatiga to‘xtalib, yangi binolar faqat mahobati bilan ajralib turishi kerak emasligi, balki ilm va ma’naviyat ulashishda peshqadam bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlab, Yangi imkoniyatlarga ega inshootni boshqarishda ilmiy-innovatsion asoslarga tayanilgan yondashuv kerakligi, shundan kelib chiqib, o‘quv uslublari, auditoriya fondini yuritish mukammal bo‘lishi, o‘quv jarayonini oqilona tashkil etish bo‘yicha zarur topshiriqlar berildi.

Prezidentimizning universitetimizga bunday e’tibori va g‘amxo‘rligi, o‘z navbatida, ko‘p ming sonli mehnat jamoamizga juda katta mas’uliyat ham yuklaydi. Ishontirib aytamanki, jamoamiz bu mas’uliyat va ishonchni, albatta, oqlaydi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!


SALKAM 70 YILDAN ORTIQ BIRGA, YONMA-YON

Ahmadali ASQAROV,
akademik, O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan fan arbobi

Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy meros hali-hanuz dunyo ilm-fani rivojida mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Asrlar o‘tsa hamki, nomlari hurmat va ehtirom bilan tilga olinadigan buyuk allomalar qutlug‘ zaminimizda yetishib chiqqani olimlik, ilmu ma’rifatga tashnalik qonimizda borligiga ishoradir.

Buyuklar avlodining tafakkur kuchi, ijodiy quvvati hech qachon so‘nmagan. Ilm istagida yongan yuraklar ko‘p bo‘lgan. Ammo imkoniyat va sharoit, o‘zini namoyon etishi uchun maydon yetarli emasdi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining ilk kunlarida ilm-fanni yangi bosqichga ko‘tarish kun tartibidagi



masalalardan biri ekanini ta’kidlab. 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvidan

YUKSAK E’TIBOR VA ISHONCH ZIMMAMIZGA ULKAN MAS’ULIYAT YUKLAYDI



Mamatsali MADIRIMOV,
professor, O‘zbekiston
Respublikasida xizmat
ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi

Har bir avlod o‘zidan keyingi avlodning yanada ilmi bo‘lishi haqida qayg‘urishi uning insoniy burchi hisoblanadi. Prezidentimizning “Ilm va izlanish bo‘lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohada kelajak bo‘lmaydi”, degan so‘zlari zamirida ham shu haqiqat mujassam.

Aynan shuning uchun ham Prezidentimiz davlat sarmoyasining salmoqli qismini ta’lim sohasiga ajratmoqda. Ta’lim va tarbiyaga islohotlarning hal qiluvchi kuchi sifatida qaralishi yaqin kelajakda mamlakatimizning texnologik rivojlanishi, yurtimizda yangidan yangi ixtirolarning kashf etilishiga asos bo‘lishi shubhasiz.

Tarixan qaysi jamiyatda ilm-fan rivojlanishiga jiddiy e’tibor qaratilsa, o‘sha yerdan malakali mutaxassislar yetishib chiqadi va ular orqali taraqqiyotga erishiladi. Bu isbot talab qilmaydigan hayotiy haqiqat. Insoniyat asrlar davomida bunga ko‘p guvoh bo‘lgan.

Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish, eng avvalo, zamonaviy fikrlaydigan, kreativ va tashabbuskor pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh etishni talab qiladi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta’lim tizimida ham islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

1964-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (o‘sha davrda institut)ga o‘qishga kelgan bo‘lsam, uzluksiz ravishda faqat shu dargohda mehnat faoliyatini yuritdim. Oddiy assistent o‘qituvchilikdan to professorlikkacha bo‘lgan mashagqatli ilmiy-pedagogik yo‘lni bosib o‘tdim. Ko‘p yillar davomida shu oliyog‘ohda fakultet dekani, kasaba uyushmasi raisi kabi lavozimlarda ishladim.

Pedagogik va rahbarlik faoliyatimda hech qachon talaba yoshlarning bilim olishi uchun bugungiday munosib sharoit yaratilmaganini, professor-o‘qituvchilar

Umrim mazmuni 1952-yildan buyon Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti bilan uzviy bog‘liq. Shu oliyog‘ohda yetuk ustozlar nazariga tushib, tarix va arxeologiya fanlari bo‘yicha ko‘plab ilmiy va pedagogik yutuqlarga erishdim. Talabalik davrimdan to bugungi kungacha universitet hayotida ro‘y bergan barcha tarixiy voqealar guvohi hamda ko‘pchiligining bevosita ishtirokchisiman.

Bundan 9-yil muqaddam, universitet asosiy binolari Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanidagi hududidan hozirgi Chilonzor tumanidagi manzilga ko‘chirilgan.

Shu kunga qadar universitet talabalari Toshkent shahri va viloyatining jami 7 ta hududida joylashgan o‘quv binolarida tahsil olib kelmoqda. Hattoki eng uzoq hudud asosiy binodan 47 kilometr uzoqlikda — Toshkent viloyatining Hasanboy qishlog‘ida joylashgan. Binolarning aksariyati eskirgan. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun jiddiy noqulayliklar tug‘dirar edi.

O‘tgan 2024-yilni universitet tarixiga zarhal harflar bilan bitsa arziydi. Sababi davlatimiz rahbarining jonkuyarligi hamda e’tibori natijasida universitet uchun yagona va yaxlit manzilda zamonaviy kampus shaklida binolar qurilishi uchun joy ajratildi. Bunday zamonaviy kampus qurilishi bironta oliyog‘oh tarixida bo‘lmaganiga ishonchim komil. Ayniqsa, pedagog klaster yaratish maqsadida kampus hududida bog‘cha, maktab, akademik litsey birgalikda qurilishi ilk bor kuzatiladigan holat bo‘ldi.

Universitetimizga bildirilgan ushbu yuksak ishonch ko‘p ming sonli jamoamiz tomonidan katta xursandchilik va yuksak mas’uliyat, kuchli shijoat va cheksiz faxr bilan qabul qilindi. Chunki o‘quv binolari tarqoq hududlarda joylashgan, o‘quv o‘rinlari va talabalar turar joylari g‘a o‘tkir ehtiyoji bor universitet uchun bu yangilik chinakam ma’nodagi orzular ushulishi desak, hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shukrona

ORTDA QOLGAN YIL OMADLI BO‘LDI

Har safar yangi yil ostonasida ortda qolayotgan yilni sarhisob qilamiz. O‘tgan bir yilda nimalarga erishganimiz nimalarga ulgurolmaganimiz haqida o‘ylaymiz. Hayot bir tekis bo‘lmagani kabi har kim uchun har xil vaziyat bo‘ladi. Kimdir yutuqlarga erishadi, yana kimdir azaliy orzusini amalga oshiradi. Yurtimizda yildan yilga odamlarning yashash tarzi yaxshilanib bormoqda. Keng ko‘lamli islohotlar, yangilanishlar, obodlik va farovonlik o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Bu shunchaki mubolag‘a emas, amalda ko‘rinib turgan bor gap.



Dilbar UJAROVA,
G‘uzor tumanidagi “Qovchin” oilaviy
shifokorlik punkti shifokori,
“Sog‘lom turmush” medali sohibi

Bugun mamlakatimizning qaysi manzilida bo‘lmang, faqat ijobiy o‘zgarishlarga guvoh bo‘lasiz. Bir paytlar dilni xira qiladigan qarovsiz binolar, ijtimoiy obyektlar o‘rnida yangisi qurilgan. Bir bor o‘tsangiz ham charchatadigan abgor yo‘llar ravon bo‘lganini ko‘rib dilingiz yayraydi.

Oliyog‘ohni tugatib, shifokorlik kasbini boshlaganimda ancha yosh edim. Bir alam orzular og‘ushida ishga kelganimda oddiygina, qarovsiz xonalarni ko‘rib, tushkun kayfiyatga tushib qolganman. Sharoiti bir ahvol bo‘lgan joyda ishlashga majbur bo‘lganman. Keyinchalik o‘zimning mahallamga yaqin G‘uzor tumanidagi “Qovchin” oilaviy shifokorlik punktiga ishga o‘tdim. U yerda ham aytarli imkoniyat yo‘q edi. Ayniqsa, qishning qorli-qirovli kunlarida, yomg‘ir yoqqan paytlarda ichkarida o‘tirib bo‘lmadi. Tomdan chakka o‘tib, xonalarda ko‘lmak hosil bo‘lib qoldirdi. Iloisiz holda ishlashga majbur edik. Istish tizimi haqida gapirmasa ham bo‘lardi.

Oradan vaqt o‘tib, barcha sohalar qatori tibbiyotga ham e’tibor qaratila boshlandi. Joylarda yangidan yangi shifoxonalar barpo etilib, aholining davolanishi uchun qulayliklar yaratildi. Jumladan, bizning oilaviy shifokorlik punkti ham 2024-yilda davlat dasturi asosida ta’mirlandi. 4 milliard so‘mga yaqin mablag‘ sarflanib, binomiz zamonaviy qiyofaga keltirildi. Eng muhimi, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun zarur sharoit yaratildi. Bundan



nafaqat mahallamiz odamlari, balki biz — shifokorlar ham mamnunmiz.

Ortda qolgan yil men uchun omadli keldi. Jumladan, Prezidentimizning 2024-yil 8-noyabrdagi “Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan “Sog‘lom turmush” medali bilan taqdirlandim. Bunday

yuksak e’tirofdan ko‘nglim tog‘dek ko‘tarildi. Kamtarona mehnatim e’tirof etilgani kasbinga mehrimni yanada oshirdi. Bundan tashqari, xalq deputatlari G‘uzor tuman kengashi deputatligiga saylandim.

Qisqasi, poyoniga yetgan yil men uchun unutilmas, yaxshi kunlarga boy o‘tdi. 2025-yil ham barchamiz uchun omadli bo‘lsin! Hech kim bemor bo‘lmasin!



Sarhisob

Yurtimizdagi keng qamrovli islohotlar barcha soha vakillari, yosh-u keksani xayrli ishlarga munosib hissa qo'shishga undamoqda. Pirovardida qishloq va shaharlarimiz obod bo'lib, har bir mahalla, har bir xonadonga farovonlik kirib bormoqda.

O'tgan qisqa muddatda O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, nufuzi yuksaldi. Sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, sport, madaniyat va ma'naviyat, qo'yingki, barcha jabhalardagi ildamlilik iqtisodiyotning yuksalishiga ham ijobiy ta'sir qildi. Birgina 2024-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 6,3 foiz oshib, 111 milliard dollardan ortdi. Aholi jon boshiga daromad 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda.



yengillashadi, qolaversa, nuroniylar o'zining noyob tajribasi va maslahati bilan ularga ko'makdosh bo'ladi.

Prezidentimizning yuksak ishonchidan ruhlanib, inson qadrini ulug'lash, xalqimizning yaxshi yashashini ta'minlash yo'lida yangi yil uchun aniq vazifalarni belgilab oldik. Ushbu yilda nuroniylarimiz 141 mingdan ortiq oilani kambag'allikdan chiqarishga ko'maklashadi.

2025-yil Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilingani mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish orqali ona tabiatni asrash yo'lidagi tizimli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda katta qadam bo'ladi. Atrof-muhitni asrashda ham nuroniylar faolligi, o'giti va nasihati juda muhim.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi

2024-yilda keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash tizimi yuqori bosqichga ko'tarildi. "Keksalar salomatligi oyligi", "Keksalar haftaligi", "Keksalar uchun turizm oyligi" doirasidagi mehr-muruvvat va g'amxo'rlik nuroniylarimizning g'ayratiga g'ayrat qo'shdi. Qariyb 1,5 million otaxon va onaxonning tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, diqqatga sazovor joylarga sayohati, teatr va muzeylarga bepul tashrifi uyushtirildi.

Bu muammolarga yechim topish uchun esa atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ona tabiatga zarar yetkazmaydigan "yashil" iqtisodiyotga o'tish talab etilmoqda.

Mahallalarda faoliyat yuritayotgan "Keksalar maslahati" guruhi, "Buvijonlar

million tup ko'chat ekilib, 10 ming gektardan ziyod "yashil belbog'", 257 ta bog' barpo etildi.

Ekilayotgan nihollarga qarab, ardoqli shoirimiz Zulfiyaxonimning "Bu bog'lar bir bog'lar bo'ladi hali" degan satrlari yodimizga tushadi. Haqiqatan, barcha hududlarda barpo etilayotgan xiyobonlar, bog'lar va "yashil belbog'"lar, "Nuroniylar", "Yoshlar va nuroniylar", "Do'stlik", "Onalar" va boshqa ko'plab nomlar bilan mahallalarda bo'y cho'zayotgan ko'rkam bog'lar ekologiya sofigiga xizmat qilishi shubhasiz.

ULUG' ISHDA

KAMARBASTAMIZ



Sodiqjon TURDIYEV,
"Nuroniy" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi, senator,
O'zbekiston Qahramoni

Yangi O'zbekistonning barcha sohalaridagi katta yutuqlari tashqi va ichki siyosatdagi to'g'ri hamda odilona qarorlar samarasi ekanini dunyoning ko'zga ko'ringan ekspertlari e'tirof etmoqda.

Nuroniylar bilan birga mahallalarda bo'lib, suhbatlashanimizda odamlarning dunyoqarashi o'zgarгани, vatanparvarlik hissi kuchaygani, ertangi kunga ishonchi ortganini ko'ryapmiz.

2024-yilda "mahalla yettligi" tizimining joriy etilishi mahallalarni yanada obod qilish, xalqimiz farovonligini oshirish, hamyurtlarimizni rozi qilish yo'lidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi.

Xususan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi nogironligi bo'lgan, ehtiyojmand shaxslar uchun e'tibor va g'amxo'rlikning amaliy ifodasi bo'ldi. Hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ochilib, yordamga muhtoj yurtdoshlarimizga 102 xil ijtimoiy xizmat ko'rsatilayotgani odamlarni nihoyatda quvontirdi, qanchadan qancha o'ksik ko'ngillar dardiga malham bo'lyapti.

Ayniqsa, Prezidentimizning yoshlar tarbiyasi, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oilalarda ahillik va totuvlikni asrashda nuroniylarning ko'p yillik tajribasiga yuksak ishonch bildirayotgani e'tiborlidir.

Bu xayrli ishlarda "mahalla yettligi"ga ko'makchi bo'lib turgan mo'ysafidlar "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul", "Nuroni — har bir oilaga mas'ul" kabi tamoyillar asosida faollik ko'rsatmoqda. Ularning mahalliy hokimliklar, mutasaddi tashkilotlar, "mahalla yettligi" bilan hamkorlikdagi sa'y-harakati natijasida 11 mingga yaqin muammoli oilada ijtimoiy barqarorlik ta'minlandi.

Mamlakatimiz bo'ylab ayni paytda 163 ta zamonaviy "Nuroniylar maskani" xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bu maskanlarda "Onalar bog'i", "Nuroniylar bog'i", "Do'stlik va birdamlik bog'i", "Nuroniylar va yoshlar bog'i" tashkil etildi.

Nuroniylar bugun davlatimiz rahbarining ishonchi, e'tibori, mehridan kuch olaypti. Xalqimizni rozi qilish yo'lidagi ishlar keksalik gashtini surayotgan 3 million 300 mingdan ziyod otaxonu onaxonning hayotida ham o'z ifodasini topyapti. Keksayib, yolg'iz yashayotgan, mehr-e'tiborga muhtoj yoshi ulug'lar holidan xabar olinib, bemorlarga davolanishi uchun sharoit yaratilyapti. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga alohida mehr-e'tibor ko'rsatilyapti.

2024-yilda keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash tizimi yuqori bosqichga ko'tarildi. "Keksalar salomatligi oyligi", "Keksalar haftaligi", "Keksalar uchun turizm oyligi" doirasidagi mehr-muruvvat va g'amxo'rlik nuroniylarimizning g'ayratiga g'ayrat qo'shdi. Qariyb 1,5 million otaxon va onaxonning tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, diqqatga sazovor joylarga sayohati, teatr va muzeylarga bepul tashrifi uyushtirildi.

O'zgariga parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashaydigan keksalar sihatgohlarda sog'lig'ini tikladi. Aksariyat nuroniylar bepul mukammal tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi.

oilalar vakillariga kasb-hunar o'rgatib, jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash va farovonligini oshirish yo'lida ulkan harakatga aylandi.

Bugun yurtimizda barcha oilalarni farovonlikka olib chiqishga keng yo'l ochildi. Yonimizda yashayotgan odamlarning har biri yaxshi yashash, jamiyatda o'z o'rmini topish, farzandlarini bilimli qilib o'stirishni istaydi. Mahallalardagi yoshi ulug'lar esa o'sha joyning past-u balandini yaxshi biladi. Shu bois, odamlar dunyoqarashini o'zgartirib, tadbirkorlikka, kasb-hunar o'rganishga keng jalb etishda nuroniylarning o'rni katta bo'lmoqda.

Zero, davlatimiz rahbarining 2024-yil 25-noyabrda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, biz — nuroniylar zimmasiga oilalami kambag'allikdan chiqarish, tomorqadan samarali foydalanish, yuqori daromadli ekinlar ekilishini tashkil



vatanimiz tabiatini asrash, daraxtzorlarni ko'paytirishimizda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ishda nuroniylar ham faol ishtirok etayotgani, ayniqsa, e'tiborli. Xususan, umummilliy loyihaning kuzgi mavsumida nuroniylar ishtirokida 20 mingdan ortiq targ'ibot tadbiri tashkil etildi. Tadbirlarda dono xalqimizning "Umringdan bir kun qolsa ham ko'chat ek" degan hikmati, ota-bobalarimizdan meros bo'lib qolgan milliy qadriyat va an'analirimiz, daraxt ekish, bog'-u gulzorlar barpo etish borasidagi go'zal odatlarimiz yoshlar ongiga singdirilmoqda. Umuman olganda, loyiha doirasida ekilayotgan har bir tup niholni parvarishlashda bobodehqonlarimiz, bog'bonlarimiz yoshlarga namuna, o'mak bo'lmoqda.

Dunyoda kechayotgan iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, atrof-muhit ifloslanishi kecha yoki bugun paydo bo'lmadi. Insoniyat yillar davomida tabiiy resurslardan ayovsiz foydalandi. Oqibatda bugun butun

maktabi" faollari atrof-muhit musaffoligini asrash, har bir mahalladagi tabiiy resurslardan unumli foydalanish, ariq va zovurlarni ifloslantirishga qaratib yoshlar orasida tushuntirish, targ'ibot ishlarini kuchaytirmoqda. Tabiiy resurslar haqida gap ketganda, tejamkorlikka alohida e'tibor qaratish muhim. Shu sabab ham yoshlarga "Nimani xor qilsang, o'shanga zor bo'lasan" degan hayotiy haqiqatning mohiyati, isrofgarchilikning ayanchli oqibati tushuntirilmoqda.

"Yashil" iqtisodiyot insoniyatning to'kin-sochin va farovon yashashi uchun zarur tabiiy resurslar: musaffo havo, toza suv, daryo va dengizlar, o'rmonlar, bog'-rog'lar, yashil hududlar saqlab qolingan holda sanoat va ishlab chiqarish, qurilish, xizmat ko'rsatish tizimi rivojlangan, ya'ni bular o'zaro uyg'unlashgan iqtisodiy faoliyat turidir. Zamonaviy taraqqiyotni ta'minlash uchun qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko'paytirish, qurilish, sanoat va ishlab chiqarish sohalarini muqobil energiya bilan ta'minlash bugun kechiktirib bo'lmaydigan masalaga aylandi. Shu sabab ham atrofga zararli gaz chiqarmaydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



dunyoda tabiiy tizim o'zgarib, geoeologik muammolar kun sayin ortib bormoqda. Har daqiqada dunyo bo'ylab 23 gektar yer cho'llanib borayotgani, cho'llangan o'lkalarda ekologik tizimlar buzilayotgani, pirovardida tabiiy, iqtisodiy inqiroz, oziq-ovqat tanqisligi, suv muammolari yuzaga kelayotgani jahon ahlini tashvishga solmoqda.

Abu Ali ibn Sino bobomiz aytganidek, dunyoda chang bo'lmaganida inson ming yil umr ko'rardi. Atrof-muhit musaffoligini ta'minlashda esa daraxtlar va yashil maydonlar insoniyatning beminnat ko'makchisi. Shu ma'noda, "Yashil makon" umummilliy loyihasi bugunga kelib umumilliy harakatga aylandi. Birgina 2024-yil bahorida 138

Atrof-muhit musaffoligini asrash haqida gap borar ekan, oldimizda turgan vazifalarga to'xtalib o'tish zarur. Yoshlarni ona tabiatga mehrli qilib tarbiyalash, tabiat ne'matlaridan tejamkorlik bilan foydalanishni o'rgatish, avvalo, oilada shakllanadi. Bobolar o'g'li va nabirasi bilan birga nihol ekisa, shu niholni parvarishlagan bola yuragidagi orzu va maqsadlar ham daraxt bilan birga o'sib-ulg'ayadi. Tabiatni asrab-avaylashda mas'uliyat his etadi.

Bu esa biz, kattalarning zimmasidagi asosiy vazifalardan. Tabiiy resurslar taqchilligi oshib borishini ayrim yoshlar o'z muammosi deb bilmasligi bor gap. Biroq tashqaridan kimdir kelib, mahallamiz obodligi, atrof-muhitimiz sofigini ta'minlab bermaydi, har birimiz o'z imkoniyatimiz darajasida bu ishga hissa qo'shishimiz zarur.

Mahallamizda qurib-qovjirayotgan daraxt yoki nihollarni, chiqindilarga to'lib borayotgan ariq va zovurlarni ko'ramiz. Bularni tartibga keltirishda o'ziga xos an'analirimiz bor. Jumladan, azaldan hashar yo'li bilan ariq va zovurlar, qabristonlar tozalangan, bog'lar barpo etilgan. Kamxarj oilalar holidan xabar olinib, yoshi ulug', belidan quvvati ketgan otaxon va onaxonlarning hovlisiga ekinlar, nihollar ekib berilgan. Ishlar yakuniga yetgach, doshgozonda ovqat pishirib, bir dasturxon atrofida mahallaning katta-yu kichigi, yosh-u qarisi jamuljam bo'lgan. Yoshi ulug' otaxonlar duo qilsa, yoshlar xizmatga yeng shimargan. Mahalladagi hamjihatlik, ahillik, bir-biriga mehr-oqibat shu taxlit shakllanib borgan.

Bugun ham shu go'zal odatlarimizni davom ettirayotgan mahallalar juda ko'p. Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida bunday qadriyatlarimiz yanada sayqallanib, mahallalarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shilishiga ishonamiz.

Umuman olganda, joriy yilda ham mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni asrash, xonadonlarda ahillikni ta'minlash, atrof-muhit va ona tabiatimizni asrab-avaylash bo'yicha qiladigan ishlarimiz ko'p. Nuroniylarimiz bu yo'lida bor g'ayrat-shijoati bilan mahallalar obodligi, oilalar tinchligi va totuvligi, o'g'il-qizlarimizning baxti, saodati uchun kamarbasta bo'ladi. Zero, yangi O'zbekistonimizda el-yurt taraqqiyoti, xalq farovonligi, mahallalar obodligi yo'lidagi islohotlarga kamarbasta bo'lish biz — nuroniylarning eng ulug' maqsadidir.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
38993 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 20:40 Topshirildi — 23:35